



ISLOM TARIXINI BADIY IFODALAGAN TURKIYZABON IJODKORLAR (XVIII-XIX ASRLAR)

Azimova Lola Karimovna

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi
tayanch doktoranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6481027>

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 15-aprel 2022

Ma'qullandi: 20-aprel 2022

Chop etildi: 23-aprel 2022

KALIT SO'ZLAR

islom, ijod, talqin, tasvir,
ijodkor, tarixiylik, to'qima,
qissa, janr, ifoda, misra,
nazm, nasr, g'oya.

ANNOTATSIYA

Maqolada XVIII-XIX asrlarda sermahsul ijod qilgan mualliflardan Sobir Sayqaliy, Jahon otin Uvaysiy, Xolis Toshkandiy, Abduqayum Vahmiy islom tarixi voqealarini badiiy ifodalagan asarlar yozganligi hamda ular ijodida tarixiy voqelik o'ziga xos tarzda talqin etilganligi asarlar sujetini berish orqali ilmiy tahlilga torilgan.

O'zbek mumtoz adabiyotida islom tarixi mavzusi XVIII-XIX asrlarda o'ziga xos janr va ko'rinishda yanada jonlandi. Bu davrda islom tarixi voqealari va din targ'ibotchilari, mashhur tarixiy shaxslar qiyofasi, xatti-harakati, jangovor sifatleri xalqona uslubda, sodda va ravon tarzda badiiy talqin etildiki, natijada xalq orzu-istaklarini o'zida mujassamlashtirgan didaktik asarlar maydonga keldi. Shu jihatdan, islom tarixini badiiy ifodalagan qissayu dostonlar xalq orasida nihoyatda ko'p va mashhur bo'lib, ijodkorlar mazkur ruhdagi asarlardan ta'sirlandi hamda tarixiy voqelik ular ijodida o'ziga xos talqin etildi. Aniqrog'i, xalqdan olib, xalqqa betakror badiiy ifoda orqali go'zal tarzda taqdim qilindi. Binobarin, o'zbek adabiyoti arab, fors, turk tilida yuzaga kelgan diniy mazmundagi asarlar ta'sirida yanada boyigan va bu asarlar turkiy tilli ijodkorlarni yanada ilhomlantirib, ko'plab

nasriy va nazmiy asarlarni yuzaga kelishiga sabab bo'lgan edi. Xususan, bu borada, sermahsul ijod qilgan turkiyzabon ijodkorlardan Sobir Sayqaliy, Jahon otin Uvaysiy, Xolis Toshkandiy, Abduqayum Vahmiy kabi mualliflarni tilga olish mumkin. Xususan XVIII asrning ikkinchi yarmi, ya'ni 1730-1798-yillarda Hisorda yashab ijod etgan qissanavis ijodkor Sobir Sayqaliy islom tarixi voqealardan biri bo'lgan Imom Husayn fojiasini o'ziga xos uslubda badiiy talqin etgan ijodkorlardan hisoblanadi. Sermahsul ijodkor Sobir Sayqaliydan bizgacha "Bahrom va Gulandom", "Qissai Ibrohim binni Muhammad", "Vays ul-Qaran", "Qissai Hamroh va Hurliqo", "Axtamnoma", "Zaynularab", "Qissai Sayqaliy" (yoki "Ravzat ush-shuhado") asari va she'riy devoni etib kelgan [1:8-13]. Muallifning fors-tojik tilidan tarjima qilgan "Axtamnoma" qissasi ham islom tarixini



badiiy ifodalagan asarlardan biri hisoblanadi. Asar mazmunini, Allohga hamd, payg'ambarimizga na't, sahobalar ta'rifu tavsifi, so'ng asosiy voqealarda hazrat Alining kofirlarni dinga kiritish yo'lidagi sa'y harakati hamda bu targ'ibot yo'lida Amir Axtam jasorati, din yo'lidagi jonbozliklari tashkil etadi. Ko'rinadiki, Amir Axtam qissasi ham islom tarixidagi muayyan voqeani badiiy ifodalashga bag'ishlangan. Asar nazmiy bo'lib, voqealar bayoni davomida nasriy matnlar ham keltirib o'tilgan.

Ijodkorning "Qissai Sayqaliy" (yoki "Ravzat ush-shuhado") asari o'zbek adabiyotida Imom Husayn tarixiga bag'ishlangan asarlar ichida mavzu qamrovi va badiiy ifoda jihatdan eng mukammali hisoblanadi [2:5]. Asar O'zFA Abu Rayhon Beruniy nomidagi sharqshunoslik institutining qo'lyozmalar fondida 1553, 3940, 4820, 5603, 6445, 6569, 7326, 7981, 7995, 8002, 9569-I, 13088, 2714 raqamlarda, toshbosmalari 221-II, 222-I, 172, 173, 9178, 4673 inventar raqamlarda saqlanadi. Ushbu fondida asarning 50dan ortiq qo'lyozma va toshbosma nusxalari saqlanayotgan bo'lib, toshbosma nusxalari V.M.Ilin va G'ulom Hasan Orifjonov litografiyalarida qayta-qayta nashr etilgan va keng tarqalgan [1:10]. H.Sulaymonov fondida esa, 5695, 320-III, 2785-I inventar raqamli qo'lyozmalar 3814, 2999, 1733 inventar raqamli toshbosmalar hamda O'zbekiston Fanlar akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi fondida 77, 53 inventar raqamli qo'lyozmalari saqlanadi.

Dostonning kirish qismi 148 misra she'rdan iborat bo'lib, u an'anaviy hamd (34 misra), na't (40 misra), choryorlar madhi (28 misra), munojot (46 misra)dan tashkil

topgan [3:65-67]. Bu kitob ("Ravzat ush-shuhado" nazarda tutilgan - L.A) "Imom Hasan va Imom Husayn qissalari", "Qissai Sayqaliy" yoki "Sayqaliy" nomi bilan ham yuritilgan. Mazkur qissa hazaji musammani maqsur (mafoilun-mafoilun-faulun) vaznida yozilgan adabiy-tarixiy asar bo'lib, taxminan 9000 baytdan ortiqroq masnaviydan iborat [2:9].

Sayqaliy qissasini birinchi va ikkinchi daftar (kitob, qism)ga bo'ladi. Birinchi qism hamdu na't, payg'ambarlar qissasi, xususan, Muhammad payg'ambarning Imomlar bilan o'zaro munosabatlari, ularga g'amxo'rliklari, imom Hasan va imom Husayn taqdiridan bashorat berilishi, choryorlar hikoyalari, Xadichai Kubro va Fotimai Zahro bilan bog'liq voqealar, Hazrat Ali va Muoviya o'rtasidagi ziddiyat, hazrat Alining shahid bo'lishi va boshqalar qalamga olingan. Shoir har bir voqeani Imomlar qismati bilan bog'lab tasvirlaydi.

Ikkinchi qismda, imom Hasanning shahid bo'lishi va imom Husaynning fitnaga uchrashi, Karbalo dashtida ahli bayt bilan yetmish ikki kishining fojiali qatl etilishi, shafqatsiz zulmu sitamlar bayon etilgan. Birinchi va ikkinchi qism voqealari bir-biri bilan uzviy bog'langan [2:12-14]. Asar kompozitsiyasi o'ziga xos tartibda qurilgan, ya'ni Husayn fojeasini badiiy tasvirlash bosh maqsad bo'lsa-da, ammo payg'ambarlar hayotidagi fojeliklar, islom tarixidagi voqealar, Muhammad payg'ambar va sahobalarning din targ'iboti yo'lidagi qiyinchiliklari keng qamrovli, ta'sirchan lavhalarda qalamga olingan.

Muallif payg'ambarlar hayotidagi fojeliklarni Husayn fojeasiga shu darajada uyg'unlashtiradiki, bu o'ziga xos uslub voqelikni yanada o'qimishli chiqishini ta'minlagan. Xususan, Odam (a.s.), Nuh



(a.s.), Ibrohim (a.s.), Ya'qub (a.s.), Yusuf (a.s.), Muso (a.s.), Ayub (a.s.), Zakariyo va Yahyo (a.s.) voqealarini berishda, payg'ambarlar dardga, qiyinchilikka yo'liqqanda, Jabroil farishta tilidan Husayn Karbaloda chorasiz qolishi va balolarga duchor bo'lishi, farzandlari ham dashtda o'lim topishi, Hasan va Husaynni ummatlar ne kuylarga solishi va hatto Husaynni o'ldirgan Shimr do'zaxda ne kuylarga solinishi kabilar yodga olinib, Muhammad payg'ambar va ul zot avlodi hayotidagi fojeliqlar eng dardli fojeliq sifatida baholanib, insoniyat tarixida bundan ortiq fojeliq bo'lmaganligi har bir tasvirda badiiy ifodalab ketilgan.

Muallif asarning ilk tasvirini Odam (a.s.) qissalaridan boshlar ekan, azaldan inson zotiga dardu g'amdan nasiba borligini aytib, buni Odam (a.s.)ning yaratilishi va uning farzandlari Qobil va Hobil voqealari misolida izohlashga harakat qilgan. Shuningdek, "ba'zi o'rinlarda voqealarga o'z munosabatini bildirish maqsadida lirik chekinish qilib, ularni yanada chuqurroq va ta'sirliroq ifodalash uchun g'amgin she'r va g'azallar bitadi" [2:12]. Voqealar davomida obrazlar tilidan munajatlar ham keltirilib, bu orqali ular ichki kechinmalari, ruhiy holati yorqinroq ko'rsatib berilgan. Ayniqsa, Muhammad payg'ambarning tug'ilishlari, islom targ'iboti yo'lidagi faoliyatlari hamda sahobalarning islomni qabul qilishi, xalifalik bayoni va boshqa shu kabi islom tarixidagi voqealar batafsil hikoya qilinadiki, bu esa, Rabg'uziy ijodini bir qadar yodga soladi. Shuningdek, imom Hasan fojeasini ham qalamga olib, voqealar bayoni davomida ta'sirchan hikoyat va rivoyatlar keltirgan.

XVIII asr o'zbek adabiyotida islom tarixini keng qamrovli va yuksak badiiy saviyada qalamga olgan ijodkor bu Sobir

Sayqaliy hisoblanadi. Sayqaliy singari biror ijodkor Muhammad payg'ambar va ul zot avlodi hayotini bu qadar batafsil va ta'sirchan yoritgan emas. Chunonchi "Shoir bu asarini buyuk bir muhabbat va ayni paytda, afsus-nadomat bilan yozganligini qayd etadi. Karbalo voqeasining islom tarixida eng katta fojea va ulkan bir fitna bo'lganligini ta'kidlaydi" [2:14].

"Qissai Sayqaliy" asarining xalq og'zaki ijodi namunalari, Qur'oni karim, hadis va islom dini tarixiga oid manbalar asosida yaratilganligini alohida qayd etish barobarida, bu asar san'atkor ijodxonasida qayta ishlanib, o'zining yangicha talqini va o'ziga xos badiiy ifodasini topgan ijod namunasi ekanini ta'kidlash kerak" [1:86]. XVIII asr qissachilik an'anasini yuqori bosqichga olib chiqishda Sobir Sayqaliyning o'rni va sarmazmun ijodi o'ziga xos ahamiyatga ega.

XIX asrning ikkinchi yarmida, taxminan 1779-1845-yillarda Marg'ilonda yashab ijod etgan taxallusi *Uvaysiy, ismi Jahon bo'lgan Jahon otin Uvaysiy* ham Muhammad payg'ambar va ul zot xonadoniga cheksiz hurmat va muhabbatining ramzi sifatida Imom Hasan va Imom Husayn tarixiga bag'ishlangan "Shahzoda Husayn", "Imom Hasan va imom Husayn" (yoki "Karbonoma") nomli dostonlar yozgan.

"Imom Hasan va Imom Husayn" asari O'zFA Abu Rayhon Beruniy nomidagi sharqshunoslik institutining qo'lyozmalar fondida 11218, 12882/1, 13363 (142 sahifa), 1837/2 raqamlarda, toshbosmalar 669, 9599, 15600, 18257, 607, 659, 19885 inventar raqamlarda saqlanadi. "Shahzoda Husayn" asari "Kitobi Uvaysiy" nomi ostida 1914-yil litografiya usulida nashr etilgan" [3:242].



H.Sulaymonov fondida 1329 inventar raqam bilan “Qissai pur g’ussa” nomi ostida saqlanayotgan qo’lyozma XIX asr o’rtalarida Tojiniso nomli ayol tomonidan ko’chirilgan bo’lib, bu asarning oxirgi 139 a sahifasida qayd etilgan [4:72-73]. Qo’lyozma bosh sahifasida “Ushbu kitob jangnomai hazrat imom Hasan va shahodati hazrat Imom Husayn (r.a.)”, “Ayni kitobi Uvaysiy” deb keltirilgan. Shuningdek, qo’lyozma nusxalarda Hasan va Husayn voqealari keng qalamga olingan bo’lsa, toshbosmalarda sahifalar qisqa bo’lib, asosan Imom Husaynning Karbalo dashtidagi jang voqealari tasvirlangan.

1837/2 raqamli qo’lyozma faqat Imom Hasan voqealariga bag’ishlangan bo’lib, dostonida Hasanning tug’ilishi, Muhammad payg’ambar ko’rib, suyunishlari, ismini Jabroil farishta mujdasi orqali Hasan deb qo’yishlari, bobolari ko’p erkalab, Allohga murojaat qilib, “Men Hasanni sevaman, Sen ham yaxshi ko’r” [5], deyishlari, Alloh ham do’st tutishi va bundan Muhammad payg’ambar sevinishlari, tug’ilganlarida azon aytishlari, etti kundan so’ng aqiqa qilishlari, ulg’aygach, yo’qolib qolishlari va farishtalar himoya qilishi, voyaga etgach, sahoba Muoviya bilan xalifalikda murosaga kelishlari, Muoviya dushmanlik kayfiyatida bo’lishi, Hasan bir xonadonga mehmon bo’lganda, uy egasi Muoviya topshirig’i bilan bir necha bor zahar berishi, duo qilib, shifo topishlari, zahar ta’siri bo’lmaganligini Muoviyaga bildirishi, bir xizmatkor tomonidan zahar yuborishi, yo’lda halok bo’lib, tuyasi qolib ketishi, tuyani Hasan odamlari topib, xat va zahar borligini ko’rib, Hasanga etkazishlari, g’amgin bo’lishi, uy egasini jazolamay, tark etishlari, so’ng ayoli Ja’da Marvon topshirig’i bilan zahar berib,

halok qilishi birma-bir bayon etilgan. Ijodkor asar davomida voqelikka munosabatini bildirib, g’azal, muxammas, musaddaslar bitgan. Ba’zan nazmiy misralar qahramonlar ruhiyati, histuyg’ularini yanada yorqinroq ko’rsatishga ham xizmat qilgan. Ta’kidlash lozimki, asarda keltirilgan g’azal, musaddaslar mustaqil syujet sifatida yozilganligi uchun shoira devonlarida uchramaydi [4:74].

Imom Husaynga bag’ishlangan 1329 raqami ostida saqlanayotgan qo’lyozmada, dastlabki voqealar Muhammad payg’ambar va chahoryorlar ta’rifi hamda “Hazrat Alining oilasidagi kishilar hayotining xronologik voqealari qisqacha ifodalangan[4:72]. So’ng muallif Fotima, hazrat Alining birin-ketin dunyodan o’tishi, Hasanga olti bor zahar berilishi, Yazid dushmanlik qilishi, Hasan ravzada tush ko’rishi kabi voqealarni qisqa bayon etib o’tadi (toshbosma nusxalarda voqealar to’g’ridan-to’g’ri jang tasviridan boshlangan). Dastlabki voqealar bayonida, albatta Hasan va Husayn o’limiga ishora qilish holatlarini ko’rish mumkin. Asosiy voqealar tasvirida, ayol o’g’lini Husayn xizmatiga, ya’ni dushmanlar orasida asir qolgan Husayn va uning oilasini qutqarish uchun yuborgani, ko’p qahramonliklar ko’rsatishi, onasini roziligiga erishishi va oqibat, tashna holda halok bo’lishi (ismi Da’b ibn Kalbiy deb berilgan), so’ngra Abdulloh, Qosim (Hasan o’g’li deb berilgan), Ali Akbar, Ali Asg’ar va boshqalar birin-ketin jangga kirishi, tashnalik g’olib kelishi va halok bo’lishi, Husaynning ayoli Shahribonu hamda Qosimning onasi farzandlari, umuman o’z holi uchun nola chekib, marsiyalar aytishi, Hasan jangga kirishi, ko’p qahramonliklar ko’rsatishi, oxir-oqibat Shimr tomonidan o’ldirilishi



ta'sirchan bayon etilgan. Ijodkor jang tasvirini kengroq tasvirlaydi. Ayniqsa, Husaynning farzandlari jangga kirganda, onasi Shahribonu oldiga kelib, tashnalikdan bir necha bor suv so'rashi, suv topmay, noiloj jangga kirishi va halok bo'lganda, onasi tilidan marsiyalar keltirilishi, shuningdek, Hasanning o'g'li Qosimni uylantirishlari, qiz visoliga etolmay, jangga kirib, halok bo'lishi ta'sirli lavhalarda qalamga olingan. Umaman, har ikki dostonida, "Hasan va Husaynning tug'ilishidan boshlab, umrining oxirigacha kechgan sarguzashtlari tasvirlangan" [4:2].

Uvaysiy ijodida Imomlar tarixi o'ziga xos talqin etilgan va badiiy tahlilga tortilgan. XIX asrda yaratilgan shu ruhdagi qissalardan farqli ravishda, davr notinchliklari, o'zaro nizolar, urushlar va bu urushlarda yolg'iz o'g'lining halok bo'lishi shoira ruhiyatiga ko'chgan holda dostonida badiiy in'ikos topgan. Nazarimizda, Buxoro amiri Nasrullo tomonidan Nodira, uning ikki o'g'li va nabirasining vahshiylarcha qatl qilinishi go'yo Husayn va uning farzandlari o'limi bilan qiyosiy olingan holda mushtaraklik kasb etgan. Ta'kidlanganidek, Uvaysiy voqealikka "ona" obrazidan turib yondashgan. Dostonlarda ona tilidan keltirilgan marsiyalar go'yo o'z o'g'li o'limiga aytilgan hasratli noladek yangraydi. Shoira epik merosining ta'sir kuchi va o'ziga xosligi ham ana shu jihatlarda ko'rinadi.

Islom tarixi voqealarini keng qalamga olgan ijodkorlardan yana biri *Shoh Hakim Xolis Toshkandiy* bo'lib, taxminan 1778-1780-yillarda tavallud topgan. Asl ismi Shoh Hakim bo'lgan Xolisning "Qissai Shoh Jarir", "Zevar shoh va Qusam ibn Abbos" hamda "Imom Hasan va imom Husayn" qissalari islom tarixi voqealarini badiiy

ifodalagan tarixiy-jangnoma asarlar hisoblanadi. O'zR Abu Rayhon nomidagi Sharqshunoslik institutining qo'lyozmalar fondida "Qissai shoh Jarir" yoki "Qissai shoh Jarir va Qusam ibn Abbos" asari 11619, 13055/4, 8844/3, 5660/7, 5660/6 inventar raqamlarda, "Zevarshoh va Qusam ibn Abbos" asari 3379 inventar raqamda saqlanadi.

"Qissai shoh Jarir" asari Alloh zikri bilan boshlanib, Muhammad payg'ambar va sahobalar ham bir qadar tilga olinadi. Dastlabki bayon ko'proq muallifning o'z ishiga madad so'rash, yozajak asariga qisqacha izoh sifatida ilk debocha, deb qabul qilish mumkin. Asosiy voqealarda Jarirni Farg'ona shaharlarida otashparastlarga qarshi olib borgan harakatlari tasvirlangan. Muallif voqealarni keng doirada yoritadi va asarni Jarir qahramonliklari bilan yakunlamaydi. Balki ezgulik hamisha g'alaba qilishini, uning farzandi Shoh Fozil jasorati orqali ifodalashga harakat qilgan. Jarir Farg'onada emas, balki otashparastlardan engilib, Madinaga borib, o'sha yerda halok bo'lishi va uning ishini oxiriga etkazish maqsadida farzandi Shoh Fozil Farg'onaga qaytib, din yo'lida kurashishi, g'alaba qozonib, shu erda qo'nim topishi va oqibat zahar berib o'ldirilishi, shu zaminda dafn etilishi kabi voqealar bilan asar xotimalangan.

"Zevarshoh va Qusam ibn Abbos" asari O'zR Abu Rayhon nomidagi sharqshunoslik institutining qo'lyozmalar fondida, 3379 inventar raqamda saqlanadi. Asar 39 sahifadan iborat, nasta'liq xatida bo'lib, kotiblar tomonidan ko'chirishda xatoliklar ko'zga tashlanadi. Dastlabki voqealarda sahobalar va Jarirning din targ'iboti yo'lidagi faoliyati bir qadar tilga olingan. Qusam ibn Abbos faoliyati Jarirning



Turkistondagi targ'ibotini bevosita davomi sifatida baholangan. Shuning uchun ham ba'zi qo'lyozmalar "Qissai shoh Jarir va Qusam ibn Abbas" nomi ostida berilgan. Asarning asosiy qismida Zevarshoh boshchiligidagi kofirlar Samarqandga Qusam ibn Abbosning namoz vaqtini bilib, ustiga lashkar tortib kelishi, musulmonlar og'ir ahvolda qolishi va ko'pchiligi halok bo'lishi, nochor ahvolda kofirlar orasida qolgan Qusam uchun Xudoning qudrati bilan choh paydo bo'lishi, choh ichiga kirib, g'oyib bo'lishi, Zevarshoh hamda uning odamlari topolmay, choh ichiga odam tushirishi, nihoyat choh dahshatlaridan qo'rqib, ortga qaytishi va boshqa shu kabi voqealar fojialarga xos bayon etilgan. Keyingi voqealarda Amir Temurning Qusam chohi ustida bino qurishi uchun lashkaridan bir odamni g'or ichiga tushirishi va uning ichidagi g'aroyibotlar, Qusam bilan uchrashishi kabi voqealarning kengroq bayoni berilgan. Samarqand mozorlari ta'rifi bilan asar xotimalangan.

Xolisning "Imomlar qissasi" asarida, voqealar dastlab, Muhammad payg'ambarning faoliyatlariga qisman to'xtalinib, ularga bag'ishlangan marsiya keltiriladi. So'ng Abu Bakr, Umar va Usmon hayoti va faoliyati qisqacha bayon qilinib, ular vafoti munosabati bilan alohida marsiyalar beriladi. Muhammad payg'ambarning qizlari Fotima haqida ham ba'zi ma'lumotlar berilib, so'ng asosiy voqealar bayoni boshlanadi. Asosiy voqealar bayonida Husayn ahli oilasi bilan Karbalo dashtida nochor qolishi, musulmonlar qarshi tomon bilan birin-ketin jangga kirishi, suvsizlikdan tashna holda halok bo'lishi, oqibat Husayn shahid qilinishi va tirik qolgan musulmonlar asir sifatida olib ketilishi, musulmonlar esa,

Yazid lashkarlariga qarshi kurashishi kabi voqealar qalamga olingan. Asar "G'azal imom Muhammad Hanifa", "G'azal imom Zaynulobiddin" va "Munojot hazrat imom Zaynulobiddin" kabi sarlavhalar bilan xotimalangan.

Xolis Toshkandiy asarlarining mavzusi xilma-xil bo'lib, aksariyatida, islom tarixining O'rta Osiyo bilan bog'liq jihatlari qalamga olingan. O'zbek mumtoz adabiyotida, biror muallif ijodida islom tarixi mavzulari bu qadar keng qamrovli qalamga olingan emas. Bu borada, Xolisni sermahsul qissanavis ijodkor, deyish mumkin. Islom tarixidagi shaxslar, Xolis ijodida yangidan o'ziga xos qiyofa kasb etgan.

XIX asrda yashab ijod etgan yana bir qissanavis va so'fiy ijodkor *Abduqayum Vahmiy Marg'iloniy*dir. Abduqayum taxminan 1826-1827 yillarda Marg'ilon bekligining Quva kentligiga qarashli Bolali Qayrag'och qishlog'ida tavallud topgan [6:3]. Ijodkorning adabiy merosi bizga to'liq etib kelmagan. Bizgacha muallifning falsafiy-tasavvufiy mazmundagi lirik she'rlari (g'azallar, to'rtliklar, fardlar), "Tarixi Bolali Qayrog'och yohud Yetti og'agini mazorlar" risolasi hamda kichik hajmli "Haft g'azot" va "Sayyid Ja'far G'oziy" nomli nazmiy asari saqlanib qolgan.

Ijodkorning Hazrat Ali qahramonligini badiiy ifodalagan "Haft g'azot" nomli dostoni bizgacha to'liq yetib kelmagan. Mavjud qismida Hazrat Alining jasorati, uning Ajdar Dev bilan olishuvi qiziqarli tarzda tasvirlangan. Jumladan, xalq Ajdar zulmidan jabr ko'rishi, Alloh amri bilan Muhammad payg'ambar Ajdar bilan urushgani Hazrat Alini yuborishlari, sahobalardan Ajdar Molik, Sa'd Vaqqos hamda imomzodalardan Hasan va Husan



ham otalariga hamroh bo'lishi, voqealar davomida, Hazrat Ali ko'p qahramonliklar ko'rsatishi, oqibat Ajdarni yengib, xalqlarni musulmon qilishi badiiy tasvir orqali keng bayon etilgan.

“Sayyid Ja'far G'oziy” asari respublika qo'lyozma fondlarida uchramaydi. Asarning mavjud parchasida, “Qaysdari Rum alayhi la'naning vazur Manjosil maslahati birla yo'llarg'a lashkar qo'yub poylagoni va Sayyid Ja'far G'oziyning sheryurak bilan alarg'a pand bergonining bayoni” keltirilgan.

Umuman olganda, o'zbek adabiyotida XVIII-XIX asrlar qissachilik an'anasini takomillashuv davri hisoblanadi. Bu borada, turkiyzabon ijodkorlar samarali ijod qilib, diniy mazmunga ega bo'lgan islom tarixi voqealarini badiiy tarzda qalamga olganlar. Bu orqali xalq ma'naviy dunyosiga ta'sir ko'rsatib, ezgulik, tinchliksevarlik, bag'rikenglik, axloqdan saboq berganlar. Albatta, mazkur ruhdagi asarlar bugungi kunda ma'naviy-ma'rifiy ahamiyatga ega bo'lib, yoshlarda tarbiyaviy-axloqiy jihatlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Soipov S. “Qissayi Sayqaliy” asari qo'lyozma nusxalarining qiyosiy-tekstologik tadqiqi. Monografiya. –T.: “VNESHINVESTPROM” nashriyoti, 2020.
2. Sayqaliy S. Ravzat ush-shuhado / Nashrga tayyorlovchi, so'zboshi va lug'at mualliflari S. Sayfulloh, D. Xunzokr. – T.: Movarounnahr, 2004.
3. Qayumov A. Qo'qon adabiy muhiti (XVIII-XIX asrlar). – T.: O'zFA nashriyoti, 1961.
4. Islomov H. Uvaysiyning “Qissai pur g'ussa” asari qo'lyozmasi // Adabiy meros, 1983, 3-son.
5. Imom Ismoil al-Buxoriy. Al-adab al-mufrad. –T.: “O'zbekiston”, 1990.
6. Abduqayum Vahmiy. Doston va g'azallar. Mutabdil Ibriq Quvovi. Farg'ona nashriyoti, 2001.
7. Azimova L. Works Of Artistic Expression Of Islamic History Of The XVIII-XIX Centuries In Uzbek Literature. International Journal of Aquatic Science ISSN: 2008-8019 Vol 12, Issue 02, 2021.
8. Djuraeva S. Shrines Of The Karshi Oasis. // The American Journal of Applied sciences, 2(11), 2020. –P. 12-15. SJIF 5.2.
9. Ganiyev. A. (2020, November). Agriculture and trade during the pre-colonial Bukhara Emirate. In Archive of Conferences (Vol. 9, No. 1, pp. 201-204)